




ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



FORENSIC LINGUISTICS: ANALYSIS OF MODERN APPROACHES

Khurmatillo Ismoilov

Doctoral Candidate, PhD in Philology, docent

Andijan State University named after Zahiriddin Muhammad Babur

xurmatilloismoilov30@gmail.com

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: forensic linguistics, linguistic expertise, methodological approach, phonetic analysis, pragmatic analysis, authorship identification, language of justice, computational linguistics, stylometry, language and law.

Received: 05.12.25

Accepted: 06.12.25

Published: 07.12.25

Abstract: The article highlights the development of forensic linguistics from the beginning of the 21st century to the present, as well as its integration with criminology, expertology, psycholinguistics, pragmalinguistics, and computational linguistics. It also analyzes the scientific foundations of modern approaches by exploring methodological perspectives in forensic linguistics, the scientific and ethical position of the linguistic expert, the legal consequences of language use, and the socially just role of language in judicial processes.

SUD LINGVISTIKASI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Xurmatillo Ismoilov

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti doktoranti

E-mail: xurmatilloismoilov30@gmail.com

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: sud lingvistikasi, lingvistik ekspertiza, metodologik yondashuv, fonetik tahlil, pragmatik tahlil, mualliflikni aniqlash, adolat tili, kompyuter lingvistika, stilometriya, til va huquq.

Annotatsiya: Maqolada XXI asrning boshidan hozirgi davrgacha sud lingvistikasining rivojlanish jarayoni, uning kriminalistika, ekspertologiya, psixolingvistika, pragmalingvistika va kompyuter lingvistikasi bilan integratsiyalashuvi yoritilgan. Shuningdek, sud lingvistikasidagi metodologik yondashuvlar, lingvistik ekspertning ilmiy-etik pozitsiyasi, tildan foydalanishning huquqiy oqibatlari hamda sud jarayonlarida

tilning ijtimoiy-adolatli rolini yoritish orqali zamonaviy yo'nalishlarning ilmiy asoslari tahlil qilinadi.

СУДЕБНАЯ ЛИНГВИСТИКА: АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ

Хурматилло Исмоилов

Кандидат филологических наук (PhD), доцент

Докторант Андижанского государственного университета имени

Захириддина Мухаммада Бобура

xurmatilloismoilov30@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: судебная лингвистика, лингвистическая экспертиза, методологический подход, фонетический анализ, прагматический анализ, установление авторства, язык справедливости, компьютерная лингвистика, стилометрия, язык и право.	Аннотация: В статье освещается процесс развития судебной лингвистики с начала XXI века до настоящего времени, а также её интеграция с криминалистикой, экспертологией, психолингвистикой, прагматической лингвистикой и компьютерной лингвистикой. Кроме того, анализируются научные основы современных направлений через изучение методологических подходов в судебной лингвистике, научно-этической позиции лингвистического эксперта, правовых последствий использования языка и социальной справедливой роли языка в судебных процессах.
---	---

Kirish. Ma'lumki, sud lingvistikasi – bu tilshunoslikning amaliy yo'nalishi bo'lib, unda tildan huquqiy jarayonlarda, xususan, sud, tergov, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida foydalanishning lingvistik, psixolingvistik va pragmatik asoslari o'rganiladi (J.Gibbons), shuningdek, sud lingvistikasi tilshunoslikning yangi va amaliy ahamiyatga ega tarmog'i bo'lib, u sud, tergov va ekspertiza jarayonlarida til vositalarining mazmuniy, shakliy va ma'naviy xususiyatlarini aniqlash hamda tildan foydalanishning huquqiy natijalarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. XXI asrning dastlabki yillaridan bugungi kungacha bo'lgan qisqa davr ichida xalqaro tajribada sud lingvistikasi ekspertologiya, kriminalistika, psixolingvistika, pragmatolingvistika va kompyuter lingvistikasi bilan integratsiyalashdi. Albatta, sud lingvistikasining zamonaviy davri mazkur asrimiz avvalidan hozirgi vaqtgacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan olimlar nomi bilan bog'liq.

Sud lingvistikasining zamonaviy davri – bu tilshunoslik va huquq sohalarining kesishish nuqtasida rivojlangan ilmiy intizom bo'lib, u sud jarayonlarida til va nutqning tahlilini amaliyotga tatbiq etadi. Ushbu davrda Roger W. Shuy, Hermann J.Künzel, Robert A.Leonard, James

R.Fitzgerald, Carole Chaski, Susan Ehrlich, Shlomo Argamon, Tim Grant, Adrian Leemann, John Olsson, J.Gibbons va L.M.Solan kabi olimlar lingvistik ekspertizaning metodologik asoslarini shakllantirish, fonetik, semantik, diskursiv va pragmatik tahlil usullarini rivojlantirish, mualliflikni aniqlash, sud-lingvistik xulosalarning ilmiy-etik me'yorlarini belgilash va sud jarayonlarida tilning adolat va huquqiy oqibatlarini o'rganish orqali zamonaviy sud lingvistikasi maydoniga beqiyos hissa qo'shgan. Mazkur olimlarning zamonaviy yondashuvlari sud lingvistikasi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar va muhokama. Bugun sud lingvistikasining zamonaviy maydonida Roger W.Shuy [1] peshqadamlardan biri sifatida faoliyat yuritmoqda. Olimning sud jarayonlarida lingvistik tahlilning amaliy qo'llanilishiga doir 2005-yilda nashr etilgan "Creating Language Crimes: How Law Enforcement Uses (and Misuses) Language" (unda huquqni muhofaza qilish organlarining tilni qanday ishlatishi va ba'zan noto'g'ri ishlatishini tahlil qilinadi) hamda 2006-yilda nashr etilgan "Linguistics in the Courtroom: A Practical Guide" (asarda tilshunoslarga sud ishlarida qanday ishlashni, hisobotlar yozishni, guvohlik berishni va sudda muvaffaqiyatli ishtirok etish masalalari ko'riladi) nomli asarlari e'tirofqa molik. Har ikkala asarning umumiy mazmunida lingvist-ekspertning ilmiy-etik mavqei, SLda maqbul metodologik yondashuvlar, tilning huquqiy oqibatlarga sabab bo'lishi va tilning ijtimoiy adolat o'rnatilishidagi ahamiyati kabi jihatlar amaliy tajriba xulosalariga tayanilgan holda asoslab beriladi.

Olim izlanishlarida lingvist-ekspertning ilmiy-etik mavqeiga alohida e'tibor qaratib, tilshunos ekspertning sud jarayonidagi mavqeini xolislik, ilmiy asoslanganlik va etik betaraflik nuqtai nazaridan baholaydi. Ya'ni ekspert na ayblovl, na himoya tomoniga xizmat qilmasligi, balki faqat dalillar asosida xulosa berishi lozim. Bu tamoyil zamonaviy sud lingvistikasi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Muallif ekspertlik faoliyatida neytrallik va ilmiy obyektivlikni doimo ustuvor deb biladi, bu esa ekspert xulosalarining suddagi ishonchliligini oshiradi. SLda maqbul metodologik yondashuvlar masalasida Shuyning ta'kidicha, diskursiv, fonetik, semantik va pragmatik metodlar orqali ekspert sud jarayonida tildan foydalanishning noaniq yoki manipulyativ jihatlarini aniqlay oladi. Bunda diskursiv tahlil – sud bayonotlari va guvohliklarning kontekstual ko'rinishini o'rganishni; fonetik tahlil – audioyozuvlar orqali shaxsni aniqlashni; semantik tahlil – hujjat va bayonotlarda so'z ma'nolari va ularning huquqiy interpretatsiyasini; pragmatik tahlil – nutqiy akt va ularning huquqiy oqibatlarini aniqlashni ifodalaydi.

Shuy tilning huquqiy oqibat (havfi) masalasida so'z yuritar ekan, yolg'on bayonot, tahdidli maktublar, shartnoma tilidagi ikki ma'nolilik, yashirin yozuvlar tahlilini muhim deb hisoblaydi. U tilni nafaqat muloqot vositasi, balki manipulyatsiya vositasi sifatida ko'rib chiqadi. Aynan shu yondashuv sud lingvistikasini faqat "ilmiy ekspertiza" emas, balki "adolat vositasi" darajasiga

ko'taradi. Tilning ijtimoiy adolat o'rnatilishidagi ahamiyati har ikki asarning eng muhim jabhasi deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Shuyning 500 dan ortiq hujjatda ekspert, 50 dan ziyod jinoyat va fuqarolik ishlarida guvoh sifatida ishtirok etish kabi amaliy tajribalarining "mevasi" sifatida yozilgan mazkur asarlarida noto'g'ri tarjimalar, noto'g'ri so'z tanlovi yoki so'zning kontekstdan tashqari talqini qanday qilib sud jarayoniga ta'sir qilishi kabi – zamonaviy sud lingvistikasining rivojida real sud ishlariga oid tahlillar jamlangan, bu esa tilshunoslikning jinoyatni ochishdagi roli nechog'lik muhim ekanini ko'rsatadi.

Sud lingvistikasining zamonaviy davriga o'zining sezilarli hissasini qo'shgan olimlardan biri – bu Germaniyalik tilshunos va akustik mutaxassis professor Hermann J.Künzeldir. Uning izlanishlari [2] ayniqsa, akustik fonetika va nutq ekspertizasi yo'nalishlaridagi samarali faoliyati SLning ilmiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Olimning akustik fonetikaga asoslangan nutq tahlili masalasidagi jiddiy izlanishlari fonetik ekspertizaning yuzaga kelishiga zamin hoziladi. Ekspertizaning mazkur turida – gumonlanuvchi shaxsning ovozini tahlil qilish orqali shaxs identifikatsiyasi masalasi ochiqqlanadi. Olim ovoz tahlilida akustik parametrlar asosida shaxsni aniqlash metodologiyasini ishlab chiqqan. Ayni davrda ushbu yondashuv nafaqat sud-tergov jarayonlarida, balki xavfsizlik sohaslarida ham keng qo'llanilmoqda.

Hermann J.Künzel sud lingvistikasini ilmiy intizom sifatida rivojlantirishda metodologik yondashuvga ham katta ahamiyat bergan. U ovoz va nutq namunalarini tahlil qilishda ekspert xulosalarining obyektivlik darajasini oshirish zarurligini ta'kidlab, statistik asoslangan metodlardan foydalanishni taklif qilgan. Bu esa sohada ekspertiza standartlarining ishlab chiqilishiga olib kelgan. Alohida e'tirof etish kerakki, Hermann J.Künzel boshqa olimlardan farqli holda, nafaqat tadqiqotchi, balki faol pedagog sifatida ham faoliyat ko'rsatib, ko'plab talaba va yosh tadqiqotchilarga sud fonetikasi va lingvistika bo'yicha saboq bergan. Uning sud lingvistikasi bo'yicha yozgan ilmiy-ommabop maqola va darsliklari ushbu sohaning yanada ommalashishiga turtki bo'lgan.

L.M.Solan Bruklin yuridik maktabi (Brooklyn Law School) professori bo'lib, huquqshunoslik va lingvistika yo'nalishlari kesishgan nuqtalardagi tadqiqotlari [3] bilan shuhrat qozongan. U izlanishlari asosida psixolingvistika, qonunlar tili va tilning suddagi ta'siri, sudda ishlatiladigan tilning semantik va pragmatik xususiyatlari, shuningdek, tilning qanday qilib huquqiy muhitda noto'g'ri talqin qilinishi yoki manipulyatsiya vositasiga aylanishi kabi masalalarga atroflicha yechim topa olgan, faoliyati davomida tilshunoslarning sud ekspertlari sifatidagi rolini mustahkamlovchi ilmiy asoslar taqdim eta olgan olimlardandir.

Solanning P.M.Tiersma bilan hammualliflikda yozilgan "Speaking of Crime: The Language of Criminal Justice" nomli asarida jinoyat tergov va sud jarayonida ishlatiladigan tilning o'ziga

xos jihatlari, so‘roq paytida yuzaga keladigan nutq manipulyatsiyalari, bayonotlarning tilshunoslik tahlili, shuningdek, sud guvohliklarining til tuzilishi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi: a) politsiya so‘roqlaridagi tilning manipulativ xususiyatlari, b) ayblanuvchilarning til nuqtai nazaridan himoyasizligi, d) qonun matnlarining semantik murakkabligi, e) tilshunos ekspertlarning suddagi roli kabilar shular jumlasidan.

Solan faoliyatining zamonaviy sud lingvistikasidagi qimmatini AQShda va boshqa mamlakatlarda tilshunos ekspertlarning sud ishtirokini qonuniylashtirish, qonunlar tili bo‘yicha tahliliy metodlarni ishlab chiqish, bayonotlar va so‘roqlarning tahliliga lingvistik yondashuvni joriy qilish kabi jarayonlarga ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning yondashuvlari, nafaqat, tilshunoslar, balki sudyalalar, prokurorlar va tergovchilar tomonidan ham amaliy qo‘llanmoqda. Shuningdek, Solan Oksford universiteti tomonidan nashr etilgan “The Oxford Handbook of Language and Law” (2012) nomli muhim ilmiy to‘plamning muharriri sifatida ham faoliyat yuritgan. Ushbu to‘plam til va qonun o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni izohlovchi ko‘plab maqolalarni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy sud lingvistikasi sohasining rivojida Hofstra universiteti professori A. Leonardning o‘rni muhim hisoblanib, uning kriminal ishlar, advokatlik jamoatchilari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun mualliflik uslubi tahlili, tahdid tahlili kabi masalalar bo‘yicha ekspert sifatidagi xizmatlari, shuningdek, yuridik, tergov, jinoyat ishlarida tilshunoslik yondashuvlarini qo‘llash, xususan til tahlili, xatarni baholash bo‘yicha ekspertiza, sudda guvohlik qilish kabi amaliy yo‘nalishlarda faolligi alohida e‘tirofga molik. Olim sud jarayonida tilning huquqiy baholanishi, tilshunos ekspertizalarining uslubi hamda sudda tilning rolini chuqur o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlarga mualliflik qilgan. Uning ishlarida [4] tilshunoslikning jinoyat va huquqiy jarayonlarda qo‘llanilishining nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi.

Leonard o‘z tadqiqotlarida asosan jinoyat tilshunosligi va lingvistik ekspertiza sohasiga e‘tibor qaratgan. Uning asarlari ekspertizalar metodologiyasi va ularning sud amaliyotida qo‘llanilishi, nutqning fonetik, semantik va pragmatik tahlili orqali sud dalillarining aniqligiga erishishga yo‘l ochadi. Buning barobarida esa sud jarayonlarida tilning roli, tilshunos ekspertlarning xulosalari va ularning sud tomonidan qabul qilinishining ahamiyati har tomonlama ochiq qilinadi. Ta’kidlanayotganidek, Leonard ko‘plab kitob, maqola va ilmiy tadqiqotlar muallifi hisoblanadi. “Language and the Law” va “Forensic Linguistics: An Introduction to Language, Crime and the Law” kabi asarlari uning eng mashhur ishlaridir. Uning ilmiy merosi a) tilshunoslikning sud amaliyotida mustahkam o‘rni, b) til va huquq o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berish, d) sud ekspertizalarining metodologik jihatdan mukammallashuvi uchun xizmat qiladi.

James R. Fitzgerald – sud lingvistikasining zamonaviy bosqichida real jinoyat tergovlari, mualliflikni aniqlash hamda tahdidli matnlarni baholash kabi yo‘nalishlarda o‘ziga xos iz qoldirgan mutaxassislardan biridir. U faoliyatida klassik akademik muhitda emas, balki real jinoyat tergovlarida olib borgan va yozma tahdidlar, manifestolar, shubhali xatlar, anonim yozuvlar va boshqa shunga o‘xshash hujjatlarning lingvistik jihatdan tahlilini amalga oshirish asnosida yozuv muallifini aniqlash, uning til xatolariga, uslubiga va leksikasiga asoslangan psixologik-profil tuzishga erishgan [5].

Fitzgerald “Unabomber (Ted Kaczynski) ishi” asosida sud lingvistikasida manifest matni asosida jinoyatchining shaxsini aniqlash orqali yangicha yondashuvni kiritgan. Shu asnoda olim matndagi stilistik markerlar (iboralarning takrorlanishi, aforizmlar, grammatika xatolari), demografik profiling (yoshi, ta’limi, madaniyati), anonim muallifning o‘ziga xos uslubiy odatlari orqali uni real shaxs bilan bog‘lash kabi jihatlariga asosiy e’tiborini qaratgan.

SLning zamonaviy davri rivojida Fitzgeraldning o‘ziga xos ish uslubi asosidagi to‘rta muhim metodologik yondashuvi e’tirofga molik: 1) solishtirma tahlil – shubhali yozuvlarni "ma'lum" yozuvlar bilan qiyoslash orqali mualliflikni aniqlash; 2) profiling (demografik) – yozuv asosida muallifning yoshi, jinsi, ta’limi, millati kabi belgilarini tahlil qilish; 3) threat assessment: tahdidli xatlarning darajasi, haqiqiy xavf solish imkonini baholash; 4) uslubiy identifikatsiya – o‘z tanlovi, jumla tuzilishi, mantiqiy ulanishlar orqali shaxsiy stilni aniqlash. Ushbu yondashuvlar hozirda zamonaviy sud tilshunosligi trening kurslari va sud ekspertiza metodikalarida asos sifatida o‘rganilmoqda.

“Forensic Linguistics” jurnali “sud lingvistikasidagi yetakchi ekspert” sifatida ta’riflagan olim Carole Chaski sud lingvistikasi amaliyotida sintaktik va statistik usullarni mualliflikni aniqlashda ilk marotaba tatbiq etgan va sud lingvistikasining zamonaviy davri uchun eng muhim jabha sanalgan metodologiya masalasiga amaliy yechim bera olgan olimdir. Jumladan, authorship identification (mualliflikni aniqlash) metodini nazariy va empirik jihatdan mustahkamlashtirgan; “ground truth” korpuslar orqali metodlarning statistik asosini yaratgan; digital matnlar, anonim yozuvlar kabi zamonaviy, murakkab vaziyatlarda ishlash uchun algoritmik va kompyuter metodlarini ilgari surgan; sudlarda dalillik maqomini oshirish uchun metodologik shaffoflik, xatolik stavkalari, markerlar va testlar kabilar bo‘yicha aniq tavsiyalar bergan.

Chaski izlanishlarida [6] “Empirical Evaluations of Language-Based Author Identification Techniques” maqolasi ahamiyatli bo‘lib, unda aytilishicha, sudda qo‘llanadigan authorship identification metodlarini empirik testlardan o‘tkazgan, ya’ni turli stilistik va lingvistik xususiyatlar (sintaktik tahlil, punktuatsiya, grammatik xatolar va h.k.)ning haqiqiy yozuvchilarga tegishlilik darajasi aniqlangan. Bu metodlarning faqat teoretik emas, balki statistik jihatdan sezilarli darajada ajrata olishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shuningdek, olimning “Who Wrote It?

Steps Toward a Science of Authorship Identification” nomli maqolasida mualliflikni aniqlash uchun metodlarni tanlash, huquqiy me’yorlar, statistik testlar va amaliy jihatlar muhokama qiladi. “Who’s At The Keyboard? Authorship Attribution in Digital Evidence Investigations” nomli ishida bayon qilinishicha, olim kompyuterda yozilgan hujjatlar, elektron matnlar uchun authorship attribution metodlarini qo’llab ko’rgan, stilometrik va lingvistik analiz, programmatik yondashuvlar yordamida, yuqori aniqlik ko’rsatkichlari (masalan 95 %) orqali testlarni o’tkazgan. “Best Practices and Admissibility of Forensic Author Identification” maqolasida esa Chaski sudda authorship identification metodlarining qabul qilinishi uchun talab qilinadigan metod tanlash, xatolik stavkalari, standartizatsiya, ekspert guvohlikining so’zlashuvi va shu kabi amaliy va huquqiy bosqichlarni ko’rib chiqadi.

Kanadada til, jins va huquq munosabatlariga bag’ishlangan tadqiqotlari bilan tanilgan Susan Ehrlich sud lingvistikasi, til va huquq sohasida muhim rol o’ynagan olimdir. U sud jarayonlarida nutq va tilning faqat ma’lumot vositasigina emas, balki huquqiy adolat, jinsiy tenglik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiruvchi element ekanligini ko’rsatdi. Bugungi zamonda uning ishlari sudlarda jabrlanuvchilarning ovozi eshitisilishi, rozilik tushunchasining aniqligi, sud protsessining nutqiy jihatdan adolatli bo’lishi uchun zarur bo’lgan ilmiy asosdir [7].

Susan Ehrlichning asarlari bilan tanishish asnosida olimning tilni oddiy voqea tasvirlovchisi emas, balki huquqiy va ijtimoiy jihatdan shakllanadigan kuchli vosita sifatida ko’rsatib bera olganligiga guvoh bo’lamiz. Xususan, “Representing Rape: Language and Sexual Consent” asari sudlarda jinsiy tajovuz va tanishlik asosidagi tajovuz (acquaintance rape) hollarida, til qanday ishlatiladi va “rozilik” nima deb tushuniladi, qanday ko’rinishlarda yuzaga chiqadi kabi savollar tadqiqiga bag’ishlangan. “Discursive Constructions of Consent in the Legal Process” nomli to’plamida esa sud huquqi, jinsiy agressiya va rozilik tushunchalarini diskurs analiz yo’li bilan o’rganish bo’yicha sohadagi eng dolzarb masalalari muhokama qilinib, rozilik tushunchasining huquqiy, ijtimoiy va nutqiy komponentlari o’rganiladi. Shuningdek, “Courtroom Discourse” nomli maqolasida advokatlar tomonidan foydalaniladigan savollar, sud jarayonining formati, jabrlanuvchi va ayblanuvchi nutqlaridagi farqlar, rozilik va zo’ravonlik kontseptsiyalarining madaniy-boshqaruv jihatlari kabilar chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, olim faoliyatidagi yana bir o’ziga xoslikni turli madaniyatlar sud tizimlariga qiziqish asnosida o’z tamoyillarining ayni tizimlarda qo’llanilishi va natijadorligi masalasiga qiziqishi bilan baholash mumkin. Ma’lum bo’ladiki, Ehrlich asosan G’arb huquqiy tizimlari (AQSh, Kanada, Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya) misollariga tayanadi. Tabiiyki, sud jarayonlari, yuridik kodi va sud amaliyotlari har bir mamlakatda turlicha, madaniyat va huquqiy madaniyat farqlari katta. Shunday bo’lsa-da, olimning taqdiqotlarida “turli tillarda “rozilik” tushunchasi nutqiy jihatdan qanday ifodalanadi?” “Madaniy norma va sud tizimidagi huquqiy normalarning farqi qanday?” kabi savollariga yechim izlanadi.

Kompyuter fanlari va sun'iy intellekt sohasida yetakchi mutaxassis sifatida tanilgan Shlomo Argamon sud lingvistikasini mashinalik va stilistikadagi tahlillar bilan integratsiya qilib, sanoqli va avtomatlashtirilgan usullarni ilgari surgan olimdir. Uning "Computational forensic linguistics: Using machine learning to analyze stylistic and authorship features" nomli asarida [8] sud lingvistikasiga mashinalarni o'qitish (machine learning), stilometriya va avtorlik identifikatsiyasi metodlarini qo'llash nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Britaniyaning Aston Universiteti professori, "Forensic Linguistics Institute" direktori Tim Grant sud lingvistikasining amaliy yo'nalishlarida, xususan jinoyat, terrorizm va fuqarolik ishlaridagi til tahlillari bilan shug'ullanib keladi. Grantning ilmiy ishlari [9] mualliflikni aniqlash (forensic authorship analysis) va lingvistik identifikatsiya sohalariga katta hissa qo'shgan.

Shveysariyalik sotsiofonetika va sud fonetikasi sohasida iqtidorli olim Adrian Leemann "An Introduction to Forensic Phonetics and Forensic Linguistics" kitobi muallifi sanaladi [10]. Asarda sud fonetikasi (ovozi, talaffuz, intonatsiya, akustik xususiyatlar) va sud lingvistikasi (so'z, ma'no, sintaksis, nutq niyati) o'rtasidagi uzviy bog'liqlik birinchi marta tizimli tarzda yoritiladi. Shuningdek, asar sudlarda til materiallarini baholashda lingvopragmatik mezonlar va fonetik dalilning ishonchlilik darajasini aniqlash usullari ishlab chiqilganligi bilan ham diqqatga sazovor.

John Olsson – sud lingvistikasi bo'yicha amaliyotchi ekspert va o'quv qo'llanmalar muallifi. Xususan, olim "Forensic Linguistics: An Introduction to Language, Crime and the Law" asari [11] orqali sud jarayonlarida tilshunosning roli, ekspert xulosasi mazmuni va lingvistik tahlil metodikasini birinchi marta tizimli tarzda yoritgan bo'lib, muallif o'z tajribasidan kelib chiqib, jinoyat tahdid xatlari, anonim yozishmalar, soxta e'lonlar, internetdagi tazyiq kabi materiallarni tahlil qilish bo'yicha amaliy usullarni ko'rsatgan. Shuningdek, asarda til va kuch munosabati, savol-javob uslubi, guvohlarning psixolingvistik reaksiyasi kabilar batafsil o'rganilgan, mualliflikni aniqlash, yozuv uslublarini taqqoslash va stilometrik tahlil (masalan, so'z chastotasi, morfologik naqshlar) bo'yicha qo'lda bajariladigan hamda dasturiy metodlar tavsiya etilgan.

J.Gibbons "Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System" nomli asari [12] bilan tanilgan sud lingvistidir. Olim asarda a) sud lingvistikasini alohida fan sifatida ajratib, uning predmeti, obyektlari, vazifalari va metodlarini belgilab beradi; b) "justice through language" g'oyasi ilgari suriladi – (ya'ni adolat til orqali amalga oshadi yoki buziladi); c) politsiya so'rovlari, guvoh bayonotlari, ayblovi va himoya nutqlarining pragmatik va diskursiv tahlili amalga oshiriladi; d) "til – hokimiyat – adolat" uchligini ko'rsatilib, tilning manipulyativ ishlatilishi (masalan, politsiya so'rovlari, sud nutqlari, huquqiy hujjatlar tili) orqali qanday qilib inson huquqlari buzilishi mumkinligini ochib beriladi; e) "plain language" – oddiy, tushunarli huquqiy til konsepsiyasi ilgari suriladi. John Gibbonsning bu asari sud lingvistikasini ilmiy fan sifatida shakllantirgan, tilning adolat, huquq va hokimiyat bilan uzviy aloqasini tahlil qilgan asosiy nazariy

manbadir. U bugungi kunda ham til va huquq o‘zaro ta’sirini o‘rganayotgan barcha sud-lingvistik tadqiqotlarning poydevorini tashkil etadi.

Xulosa. Yuqorida ta’kidlanganidek, bugun sud lingvistikasining asosiy yo‘nalishlari sifatida: lingvistik ekspertizaning metodologik asoslarini shakllantirish, fonetik, semantik, diskursiv va pragmatik tahlil usullarini rivojlantirish, mualliflikni aniqlash, sud-lingvistik xulosalarning ilmiy-etik me’yorlarini belgilash va sud jarayonlarida tilning adolat va huquqiy oqibatlarini o‘rganish kabi sohalariga e’tibor qaratilmoqda. Ko‘rinib turibdiki, yuqorida nomi zikr etilgan sud lingvistlari sud lingvistikasining dolzarb masalalari yuzasidan amalga oshirilgan keng ko‘lamli izlanishlari hamda amaliy kuzatishlarga asoslangan nazariy xulosalari bilan “zamonaviy sud lingvistikasi” rivojiga ulkan xissa qo‘shmoqdalar. Shuningdek, SLning zamonaviy davri sifatida e’tirof etilayotgan bugungi ilmiy maydonda mazkur tilshunoslarning diqqatga sazovor tadqiqotlari va nazariy qarashlariro bahs-munozaralar davom etmoqda.

Ayni vaqtda sud lingvistikasiga zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni o‘rganish, sud lingvistikasiga tatbiq etilayotgan metodologik yondashuvlarni umumlashtirish, tahlil etish muhimdir. Ushbu boy tajriba asosida jamlangan ilmiy xulosalardan xalqaro maydonda – sud lingvistikasiga doir qarashlarda, albatta, madaniy aspektlarni hisobga olgan holda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shuy, R. (2005). *Creating Language Crimes: How Law Enforcement Uses (and Misuses) Language*. New York: Oxford University Press. – 288 p.; Solan, L.M. (2010). *Linguistics in the Courtroom: A Practical Guide*. New York: Oxford University Press. – 256 p.; http://rogershuy.com/ae_forensic.html?utm.
2. Künzel H.J. *Sprechererkennung: Grundzüge forensischer Sprachverarbeitung*. – Heidelberg: Kriminalistik-Verlag, 1987. – XII, 158 b.; Künzel H.J. *Phonetische Untersuchungen zur Sprecher-Erkennung durch linguistisch naive Personen*. – Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 1990. – XII, 112 b.; Künzel H.J., Braun A., Eysholdt U. *Einfluss von Alkohol auf Sprache und Stimme*. – Heidelberg: Kriminalistik-Verlag, 1992. – VIII, 117 b.
3. Solan L. M., Tiersma P. M. *Speaking of Crime: The Language of Criminal Justice*. – Chicago: University of Chicago Press, 2005. – 258 b.; Tiersma, P. M., & Solan, L. M. (Eds.). (2012). *The Oxford Handbook of Language and Law*. Oxford: Oxford University Press. – 640 p.
4. Leonard R.A., Ford J.E.R., Christensen T.K. *Forensic Linguistics: Applying the Science of Linguistics to Issues of the Law* // *Hofstra Law Review*. – 2017. – Vol. 45, No. 3. – S. 897–910. – [Online] URL: <https://docslib.org/doc/5306398/applying-the-science-of-linguistics-to-issues-of-the-law-robert-a-leonard-r.a-charlene-hummert-case-authorship-and-profiling-analysis-of-stalker-and-serial-killer-letters>; Leonard R.A. *Charlene Hummert Case: Authorship and Profiling Analysis of Stalker and Serial Killer Letters* // In: Olsson J., Luchjenbroers J. (Eds.). *The Routledge*

Handbook of Forensic Linguistics. – London: Routledge, 2017. – S. 312–328. – [Online] URL: https://colab.ws/articles/10.1007%2F978-3-319-61625-4_25; Leonard R.A. Forensic Linguistic Consultation in the JonBenet Ramsey Case // Hofstra University Forensic Linguistics Justice Project, 2020. – [Online] URL: <https://www.hofstra.edu/forensic-linguistics-institute/justice-project.html>; Leonard R.A. Melissa Lucio Capital Case: Forensic Linguistic Re-evaluation of Interrogation Records // Hofstra University Justice Project, 2021. – [Online] URL: <https://www.hofstra.edu/forensic-linguistics-institute/justice-project.html>

5. https://en.wikipedia.org/wiki/James_R._Fitzgerald?utm_ "James R. Fitzgerald".

6. https://en.wikipedia.org/wiki/Carole_Chaski?utm_ "Carole Chaski"; Who Wrote It? Steps Toward a Science of Authorship Identification, National Institute of Justice Journal September. Also available through National Criminal Justice Reference Service; < <http://www.ncjrs.org> NCJ 184604; Who's at the keyboard? Authorship attribution in digital evidence investigations. International Journal of Digital Evidence, 4 (1), 1–13. Chaski C.E. (2013).

7. https://en.wikipedia.org/wiki/Susan_Ehrlich?utm_ "Susan Ehrlich"; Matoesian, G. M. (1997). Representing Rape: Language and Sexual Consent. Oxford: Oxford University Press. – 328 p.; Ehrlich, S. (2001). Discursive Constructions of Consent in the Legal Process. Oxford: Oxford University Press. – 248 p.; Cotterill, J. (2003). Courtroom Discourse: The Language of Power and Control. Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins Publishing Company. – 250 p

8. https://en.wikipedia.org/wiki/Shlomo_Argamon?utm_ "Shlomo Argamon"; Argamon Sh. Computational forensic linguistics: Using machine learning to analyze stylistic and authorship features. // The Routledge Handbook of Forensic Linguistics. / tahr. M. Coulthard, A. Johnson. – 2-nashr. – London; New York: Routledge, 2021. – B. 487–502.

9. https://timgrantforensiclinguist.com/?utm_ "Tim Grant – Forensic Linguist"; Grant T. Identifying individuals by their linguistic output: Forensic authorship analysis. // The Routledge Handbook of Forensic Linguistics. / tahr. M. Coulthard, A. Johnson. – 2-nashr. – London; New York: Routledge, 2021. – B. 445–460.

10. Leemann, A., Perkins, R., Buker, G. S., & Foulkes, P. An Introduction to Forensic Phonetics and Forensic Linguistics. – London; New York: Routledge, 2024. – 324 p. – ISBN 978-0-367-61657-1; https://en.wikipedia.org/wiki/Adrian_Leemann?utm_ "Adrian Leemann".

11. Olsson, J. Forensic Linguistics: An Introduction to Language, Crime and the Law. – London; New York: Continuum, 2004. – 269 p.

12. Gibbons J. Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System. – Oxford: Blackwell Publishing, 2003. – 344 b.

13. Ismoilov, X. (2025). O‘zbek internet diskursini tadqiq etish masalalariga doir//Sharq filologiya jurnali, 5(04), 145–152.

<https://supportscience.uz/index.php/ojp/article/view/2812>; X.T.Ismoilov. Jahon tilshunosligida sud lingvistikasining takomiliga doir // Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR-НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.Кокандский ГПИ.748-751-betlar ;
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/35>; <https://utppublishing.com/journal/ijssl>.